

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA DILDORA INOMJONOVNA

ISAJON SULTONNING TARIXIY MAVZUDAGI
ASARLARI BADIYYATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Ibragimova Dildora Inomjonovna

Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlari badiiyati 3

Ибрагимова Дилдора Иномжоновна

Художественность исторических произведений Исаджона Султон 25

Ibragimova Dildora Inomjonovna

The artistry of Isajon Sultan's historical works 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA DILDORA INOMJONOVNA

ISAJON SULTONNING TARIXIY MAVZUDAGI
ASARLARI BADIYYATI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3334 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jspu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Botirova Shaxlo Isamiddinovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Karimova Yulduz Akulovna**
filologiya fanlari doktori, dotsent
Boboxonov Mavlon Raxmatullayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.(Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel.: (872) 226-13- 57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspi_@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya va avtoreferat bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi

U.A.Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.fanlari doktori,
professor

N.N.Xadjimusayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol.fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

U.Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi filol.fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida tarixiy mavzudagi nasriy asarlar o'tmish voqealariga murojaat qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki inson mavjudligining fundamental masalalarini anglash imkonini beruvchi janrlar sifatida alohida o'rin tutadi. Ularning badiiy tabiati faqatgina tarixiy materialni qayta tiklashga emas, balki insoniyatning ma'naviy tajribasini belgilaydigan doimiy qadriyatlarni ochishga qaratilgan. Shuning uchun ham "Iliada", "Odisseya", "Shoh Edip" yoki "Gamlet" kabi qadimiy durdonalar hanuzgacha jahon badiiy an'anasining g'oyaviy va estetik manbayi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bu esa tarixiy-badiiy janrning hamisha yangilanib turuvchi ichki kuchga egaligini, bunday mavzular va g'oyalar har bir avlod tomonidan qayta talqin etilib, yangi badiiy shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy mavzudagi nasriy asarlar fakt va badiiy to'qima o'rtasidagi munosabat, muallifning o'tmishni talqin etishdagi roli, tarixiy obrazning badiiy xususiyatlari, davrni badiiy qayta qurish tamoyillari, tarixiylik va zamonaviylikning o'zaro nisbatini qamrab olgan murakkab badiiy hodisa sifatida o'rganiladi. Muallif konsepsiyasini, tarixiy shaxsning badiiy modelini yaratish usullarini, janr poetikasining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish tarixning badiiy anglanish tabiatini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Mazkur muammolarni hal qilish zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va tarixiy-badiiy asarlarni yanada kengroq tadqiq etish zarurligini anglatadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tarixiy xotirani mustahkamlash, jamiyatning ma'naviy rivoji va yoshlarda milliy o'ziga xoslik tuyg'usini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak"¹. Shu nuqtayi nazardan, badiiy adabiyot tarbiyaviy va madaniy ongni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Yaqin va uzoq tariximiz sahifalarini yoritayotgan Isajon Sulton asarlari tarixiy ong shakllanish jarayonining eng muhim jihatlarini aks ettiradi, dolzarb falsafiy-mavhum masalalarni kun tartibiga chiqaradi hamda yurtimizning tarixiy-madaniy merosini yangi talqinlarda anglashga xizmat qiladi. Isajon Sultonning tarixiy matnlar poetikasi, ulardagi mavzu va g'oyaviy ustuvorliklarni aniqlash, shuningdek, yoshlar orasida tarixiy-badiiy asarlar mutolaasiga qiziqishni oshirish bugungi o'zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ–576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida tashkil etilgan "Adiblar xiyoboni" ochilish marosimida so'zlagan nutqi. Manba: president.uz

va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ–19-son “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanchilikning o‘ziga xos qirralari borasida ilk bor yunon olimi Aristotelning “Poetika” asarida duch kelamiz. Zamonaviy tadqiqotlardan Yevropa adabiyotida Susan Brantly², Jerome de Groot, Sutherland Emily, P.Bonanno, Joyce Saricks, Sarah Johnson, Lynda Adamson, Jonathan Nield, J.P.Bonanno, H.Kohler, Angela Breidenbach, Groot, D.R.Haggis tarixiy nasrning turli jihatlarini tadqiqi bilan shug‘ullangan bo‘lsa, rus adabiyotshunosligida turli davrlarga oid tarixiy nasrchilik³, milliy adabiyotlarda tarixiy nasr⁴ va ayrim adiblar ijodida tarixiy nasr⁵

² Susan C. Brantly. The Historical Novel, Transnationalism, and the Postmodern Era. New York: Routledge, 2017, – P. 1; Jerome de Groot. The Historical Novel. London and New York: Routledge, Group, 2010, –P 1; Sutherland Emily. Book reviews: The Historical Novel by Jerome de Groot in Transnational Literature, v. 2, no 2. May 2010; Bonanno P. Novels, historical in Encyclopedia of time: science, philosophy, theology, & culture, ed. H. James Bix. California: Sage Publications, 2009, –P. 875; Joyce G. Saricks. The Readers’ Advisory Guide to Genre Fiction. Chicago: American Library Association, 2009. –P. 291; Sarah Johnson. Historical Fiction: A Guide to the Genre. Westport, CT: Libraries Unlimited, 2005. –P. 1; Lynda G. Adamson, World Historical Fiction, An Annotated Guide to Novels for Adults and Young Adults. Arizona, Oryx Press, 1999. –P. 11; Jonathan Nield. The Historical Novel: Types and Definitions in Library Review, v. 2 no. 4, Spring 1929. –P. 209-13; Bonanno J. P. Novels, historical in Encyclopedia of time: science, philosophy, theology, culture, ed. H. James Bix. California: Sage Publications, 2009, –P. 875; Kohler H. How to research a historical novel. Pan Macmillan Website: <https://www.panmacmillan.com/blogs/literary/research-historical-novel-fiction-1960> (Accessed 15 March 2024); Breidenbach Angela. Researching Your Historical Novel. The Steve Laube Agency Website: <https://stevelaube.com/researching-historical-novel/> (Accessed 25 April 2024); Groot. The Historical Novel, Quoted by William Chambers and Robert Chambers in Chambers’s Edinburgh Journal, v.1, no. 1-52, Edinburgh, 1833. –P. 7; Haggis D. R. Scott, Balzac, and the Historical Novel as Social and Political Analysis: Waverley and Les Chouans in The Modern Language Review, v. 68, no. 1. Modern Humanities Research Association, Jan., 1973. –P. 51-68.

³ Сидоров А. В. Историческая проза Ю.Давыдова 1960-х – 2000-х гг.: проблематика и поэтика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Магнитогорск, 2009; Христолюбова О. В. Русская историческая проза 40-50-х годов XIX века/ Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Саратов, 1999;

⁴ Хамзин М. Х. Казахская историческая проза о людях искусства (традиция и новаторство)/ Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Алма-Ата, 1983; Ардашникова

masalalari o'rganilgan.

XIX asr oxirida Bartold, N.Veselovskiy, XX asrda N.Ostroumov, L.N.Gumilev, Smirnova-Rakitina⁶ turkiy xalqlar tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan. 70–80-yillar o'zbek adabiyotshunosligida rusiyzabon olimlar: Z.D.Nurmuhamedova, A.K.Arxangelskaya, A.K.Zayniddinova, I.E.Samandarov tadqiqotlari⁷, keyinroq o'zbekzabon munaqqidlar: H.Karimov, M.Q.Muhiddinov, Z.J.Pardayeva, A.J.Tangirov, O.A.Akbarov, H.O'.Karimov, A.N.Nosirov, Sh.B.Isayeva, O.A.Saidov, M.O.Otajonova, G.A.Yusupova, S.G'.Matyoqubovlarning⁸ ilmiy izlanishlari asosida shakllangan dissertatsiya ishlari mavjud. Jumladan, I.Samandarov, A.Ergashev, O.Iskandarova, Z.Rahimov, Sh.Isayeva, A.Nosirovlarning dissertasiyalarida tarixiy romanlar syujet kompozitsiyasida rivoyatning o'rni, tarixiylik, xarakter ruhiyatining tasviri, ijodning muhim poetik xususiyatlari tadqiq etilgan.

А.Н. Проблема романтизма и историческая проза Ирана начала XX в / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Москва, 1987; Вилисова Т. Г. Немецкая историческая проза 70-80-х гг. XX века. Поэтика жанров/ Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Пермь, 2005.

⁵ Степанова М. Г. Историческая проза Н. А. Полевого/ Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Санкт-Петербург, 1999; Матвеева О. В. Историческая проза Марка Алданова: Философия истории, типология характеров, жанровые формы / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Москва, 1999; Федорова Ж. В. Историческая проза Ф. В. Булгарина, жанровое своеобразие/ Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Казань, 2002; Лексина А. В. Историческая проза В. С. Соловьева: Генезис и поэтика / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Коломна, 1999; Крюков А. С. Поэтика исторической прозы Тацита. –Санкт- Петербург, 2002.

⁶ Бартольд В. В. Тюрки: двенадцать лекций по истории тюркских народов Средней Азии. –Москва: Ломоносов, 2014. – 232, ISBN 978-5-91678-240-0; Веселовский А. Н. Историческая поэтика. –Москва: Высшая школа, 1989. –С. 404; Остроумов Н. П. Сарты [Текст]: этнографические материалы –Ташкент: типография братьев Порцевых, 1890 - 1895.- Вып. 2. –1893. –XVI, –С. 176; Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. ЎзРФА Фан, 2006. –Б. 500; Смирнова В. – Ракитина. Ўрта Осиёнинг минг йил муқаддам яшаган жаҳоншумул олим – улў ҳакими, риёзиёни, мунажжими, файласуфи, шоири ва бастакори Абу Али ибн Сино қиссаси. –Тошкент: Ёш гвардия,1968. –Б. 398.

⁷ Самандаров И. Э. Историзм узбекских исторических романов / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Ташкент, 1992. –С. 22; Нурмухамедова З.Д. Проблема создания характера исторической личности. (К вопросу о роли факта и вымысла) Автореферат канд. дисс. – Ташкент, 1974, –С. 22; Архангелская А.К. Проблема конкретной исторической личности в узбекской советской прозе. Автореферат канд.дисс. – Ташкент, 1977. –С. 28; Зайниддинова А.К. Изображение характера и обстоятельства в узбекских историческом романе 70-х годов Автореферат канд.дисс. –Ташкент, 1981. –С. 24.

⁸ Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). филол. фан. доктор. диссер. автореф. –Тошкент, 1994. –56 бет; Муҳиддинов М.Қ. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. (“Ҳамса”ларнинг биринчи дostonлари асосида). филол. фан. доктор. диссер. автореф. –Тошкент, 1995. –60-бет; Пардаева З.Ж. Ўзбекистондаги рус ва русийзабон адабиётида тарихий қаҳрамонларнинг бадиий-типологик талқини. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 1995. –26-бет; Тангиров А.Ж. Ҳозирги замон дostonчилигида тарихий воқелик ва шахс талқини. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 1995. –28 бет; Акбаров О.А. Комил Икромов ижодида тарихийлик ва замонавийлик. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 1997. –22 бет; Каримов Х.Ў. Тарихий шахс ва бадиий образ. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 1999. –29 бет; Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида). Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 1999. –24 бет; Исаева Ш.Б. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятни тасвирлаш усуллари. Филол. фан. номз. диссер. автореф. – Тошкент, 2001. –22 бет; Саидов О.А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида комил инсон масаласи (Европа маърифатчилиги адабиёти билан қиёсий ўрганиш тажрибасидан). Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 2002. – 32 бет; Отажонова М.О. Иззат Султоннинг сўнгги йиллар драматургиясида замон ва қаҳрамон концепцияси. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 2005. –22 бет; Юсупова Г.А. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадиий талқини. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 2005. –26 бет; Матёкубов С.Ғ. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадиий талқини. Филол. фан. номз. диссер. автореф. –Тошкент, 2006. –22 бет.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid” (2017–2021) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Isajon Sultonning adabiy-tarixiy asarlarini kompleks o'rganish, muallifning tarixiy voqelikka yondashuv tamoyillarini, tarixiy fakt va badiiy talqin munosabatini, tarixiylik konsepsiyasini aniqlash, shuningdek, yozuvchi estetik ideali va individual uslubini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlarning genezisi va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, antik davr, o'rta asrlar, ma'rifat davri va XX–XXI asrlar tarixiy nasri o'rtasidagi davomiylikni ko'rsatish, shuningdek, ushbu janr asosiy mavzu va g'oyalarining o'zbek adabiyotida qanday badiiy modellar orqali ifodalanish mexanizmlarini tahlil qilish;

Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlarida uchraydigan yetakchi mavzularni nazariy poetika va ijtimoiy-falsafiy mezonlar asosida tizimlashtirish, ularning ilmiy-tarixiy konsepsiyalar bilan bog'liqligi, badiiy talqindagi funksiyasi va muallif estetik qarashlari bilan o'zaro munosabatini o'rganish;

yo'zuvchining kichik janrga oid tarixiy asarlarida xronotopning strukturasi, vazifasi va badiiy dinamikasini tahlil qilish, xronotop orqali tarixiy voqelik qanday modellashtirilishini aniqlash, shuningdek, muallifning tarixiy voqealarni badiiy qayta yaratishdagi individual ijodiy niyati va uslubiy strategiyalarini ochib berish;

“Bilga xoqon” romani tahlili orqali tarixiy faktning badiiy talqini, muallifning estetik ideali, tarixiy materialni konseptual qayta yaratish modeli va obrazlar tizimidagi tarixiylik tamoyillarini aniqlash, shuningdek, roman poetikasi asosida umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi “Tabg'achlar”, “Xun”, “Ismsiz qahramon haqida hikoya”, “Yog'och kovush”, “Tilsim lashkari yoxud Muqanna”, “Qoraqush yulduzning siri” hikoyalari, “Robiya Balxiy” qissasi, “Bilga xoqon” tarixiy romani tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlaridagi tematik va g'oyaviy xususiyatlar, badiiy xronotopning vazifasi va modellari, tarixiy faktning badiiy talqini, estetik ideal va muallifning tarixiylik konsepsiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, biografik, psixologik va sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon adabiyotida tarixiy mavzuda yozilgan asarlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari izchil o'rganilgan, antik davr, o'rta asrlar va XX asr nasri doirasida tarixiy voqelikning badiiy talqini umumlashtirilib, shu asosda o'zbek adabiyotida tarixiy mavzuning ifodalanish mexanizmlari aniqlangan;

Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlari tematik, kompozitsion va badiiy mezonlar asosida ilk bor tizimli tavsif etilib, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy-tarixiy, umuminsoniy, hissiy-tarixiy va diniy-tarixiy yo'nalishlar o'zaro bog'liq poetik

maydon sifatida asoslab berilgan;

muallif individual uslubi va tarixiy fakti badiiy qayta ishlash usullari, xronotop yaratishdagi modellar, etnomadaniy elementlarni matnga integratsiya qilish mexanizmlari kompleks tahlil qilinib, ular Isajon Sulton tarixiy nasrining badiiy konsepsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida asoslangan;

“Bilga xoqon” romani misolida tarixiy fakt va badiiy talqin nisbati, estetik ideal va tarixiy voqelikni qayta yaratish usullari ilmiy jihatdan aniqlanib, yozuvchining tarixiy voqelikni badiiy modellashtirishga oid individual konsepsiyasi ilk bor nazariy jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon va o‘zbek adabiyotida tarixiy nasrning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari yodnoma, memuar, anbiyolar tarixi tipidagi asarlar negizida paydo bo‘lganligi ko‘rsatib berilgan va o‘zbek adabiyotida “tarixiy nasr” atamasining qo‘llanilish ehtiyoji dalillangan;

Isajon Sulton tarixiy nasri misolida badiiy asar mavzularining tasnifi amalga oshirilgan, mazkur tasnif asosida o‘zbek adabiyotida mavzularning serqatlamligi hodisasi dalillangan, turkiy xalqlar tarixiga oid asarlarni davrlashtirish amalga oshirilgan, “Xun imperiyasi tarixi qalamga olingan III-IV asr eng qadimgi, “Ma’suma” tarixiy romanida tasvirlangan XX asrning ikkinchi yarmi so‘nggi davr sifatida talqin qilingan;

yozuvchi tomonidan tarixni aks ettirishda sinfiylik, soxta mafkuraviy aqidalardan xoli bo‘lgan sof ilmiy tamoyillarning qo‘llanilishi zamirida XXI asr o‘zbek adabiyotida yuzaga kelgan tarixni badiiy aks ettirishning yangi mezonlari baholangan;

Isajon Sultonning adabiy-tarixiy asarlari uslubi sodda, ravon, bugungi kun ruhiga mosligi, tarixiy haqiqatlarni o‘zida aks ettira olganligi bilan kitobxonlar orasida mashhur bo‘lib borayotgani, adolatli huquqiy jamiyat va komil shaxs tushunchalarining bugungi kundagi dolzarb ahamiyati aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natija va xulosalarning dissertant tomonidan e‘lon qilingan ilmiy ishlarda aks etganligi, aniq qo‘yilgan muammolar qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, germeneytik, psixologik va analitik tahlil usullari orqali yoritilganligi, ishonchli ilmiy hamda adabiy manbalar, internet ma’lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot xulosalari va tavsiyalari amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yozuvchi Isajon Sultonning adabiy-tarixiy asarlarini tadqiq etish orqali olingan xulosalar va nazariy qarashlar adabiyotshunoslik nazariyasi hamda adabiy tanqidchilik uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumot va xulosalar berishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosa va tavsiyalardan oliy ta’lim tizimida “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Adabiy tanqid tarixi va hozirgi adabiy jarayon” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlarida mavzu va g'oyaviy jihatlarni tadqiq qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

jahon adabiyotida tarixiy mavzuda yozilgan asarlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari izchil o'rganilgan, antik davr, o'rta asrlar va XX asr nasri doirasida tarixiy voqelikning badiiy talqini umumlashtirilib, shu asosda o'zbek adabiyotida tarixiy mavzuning ifodalanish mexanizmlari aniqlangan xulosalar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Bolalar adabiyoti o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'iga asosan nashr ruxsatnomasi berilgan. № 325170.) Natijada, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari talabalarining bolalar adabiyoti borasidagi nazariy bilimlari oshishi, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va dunyoqarashni kengaytirishga imkon yaratgan;

Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlari tematik, kompozitsion va badiiy mezonlar asosida ilk bor tizimli tavsif etilib, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy-tarixiy, umuminsoniy, hissiy-tarixiy va diniy-tarixiy yo'nalishlar o'zaro bog'liq poetik maydon sifatida asoslab berilgan ilmiy-nazariy xulosalardan 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 20-iyundagi 242/1-ma'lumotnomasi). Natijada, ixtisoslik fanlarini o'qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

muallif individual uslubi va tarixiy faktni badiiy qayta ishlash usullari, xronotop yaratishdagi modellar, etnomadaniy elementlarni matnga integratsiya qilish mexanizmlari kompleks tahlil qilinib, ular Isajon Sulton tarixiy nasrining badiiy konsepsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida asoslangan nazariy, amaliy xulosa va ilmiy yangiliklaridan F1-FA-0-43429, FA-F1, G002 "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2024-yil 20-iyundagi 242/1-ma'lumotnomasi). Natijada, ixtisoslik fanlarini o'qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

"Bilga xaqon" romani misolida tarixiy fakt va badiiy talqin nisbati, estetik ideal va tarixiy voqelikni qayta yaratish usullari ilmiy jihatdan aniqlanib, yozuvchining tarixiy voqelikni badiiy modellashtirishga oid individual konsepsiyasi ilk bor nazariy jihatdan dalillangani borasidagi ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025 -yil yanvar va may oylaridagi "Adabiy jarayon", "Bedorlik", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025-yil 7-iyuldagi 05-09-1087-son ma'lumotnomasi).

Natijada, dasturlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, xorijiy jurnallarda 2 ta, respublika jurnallarida 6 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 128 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Tarixiy mavzudagi badiiy asarlar genezisi va taraqqiyoti”** deb nomlanib, uch faslni o'z ichiga oladi. *“Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarning shakllanish bosqichlari”* nomli ilk fasl tarixiy mavzudagi nasriy asarlar tarixiga bag'ishlangan. Badiiy adabiyot hayotning in'ikosi sifatida ilk paydo bo'lgan davridayoq tarix ilmi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Tarixning ziddiyatlarga to'la turli voqea-hodisalari badiiy adabiyot uchun hayotiy material sifatida xizmat qildi, shu bois insoniyatning tarixiy taraqqiyoti badiiy adabiyotning ham yuksalishiga sabab bo'ldi. Jahon adabiyotida tarixiy mavzuda yozilgan turli janrdagi asarlarni birlashtirib turuvchi “tarixiy nasr” (historical prose, историческая проза) atamasi qo'llaniladi. Adabiyotshunoslikda “tarixiy” belgisining mezonlarni aniqlashtirishga oid turli ta'riflari uchraydi, ingliz tanqidchisi Sara Jonson tarixiy romanlarni “Olis tarixdan to XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr tasvirlangan asarlar”⁹ deb baholaydi. “Wayback Machine” (tarixiy romanlar jamiyati)¹⁰ janrni “tasvirlangan voqealardan kamida ellik yil o'tib yozilgan” asarlar sifatida belgilaydi. Ingliz olimasi Linda Adamson tarixiy roman yozilishidan kamida 25 yil oldin sodir bo'lgan hodisalarni tasvirlovchi roman ekanligini ta'kidlaydi¹¹. Bizningcha, hayotiy mavzuni tarixiy deb baholashda *hayot oqimini* hisobga olish muhimdir. Asrimiz avvalida XX asrning 50-yillari zaminimizda yuz bergan o'zgarishlar haqida xulosalarga kelina boshlagan bo'lsa,

⁹ Sarah L. Johnson. Historical Fiction: A Guide to the Genre. Westport, CT: Libraries Unlimited, 2005, p. 1.

¹⁰ Kaliforniyaning San-Fransisko shahrida joylashgan Amerika notijorat tashkiloti Internet Archive tomonidan asos solingan World Wide Webning raqamli arxivi. 1996-yilda yaratilgan va 2001-yilda ommaga taqdim etilgan bo'lib, u foydalanuvchiga veb-saytlarning o'tmishda qanday ko'rinishini ko'rish uchun “vaqtga qaytish” imkonini beradi.

¹¹ Adamson, Lynda G. World Historical Fiction. Phoenix, AZ: 1999. Oryx Press. p. xi. ISBN 9781573560665.

bugun zamonaning shiddati tarixiylikning “qisqarishiga” sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotimizda tarixiy nasr jahon adabiyotining taraqqiyot davrlari fonida ko‘rib chiqildi: **Antik davr tarixiy nasri** namunalari qadimgi Yunon va Rim adabiyotida uchraydi. Antik davrga tegishli Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari, xalq og‘zaki ijodida saqlanib qolgan tarixiy voqealar bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar janrning ilk namunalari sifatida baholanadi. Tarixiy nasr barcha dunyo xalqlari adabiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Xitoy klassik romanlarining to‘rtinchi uchasi uzoq o‘tmish voqealari tasviriga bag‘ishlanadi¹². Yunon mumtoz romannavislarida ham o‘tmishdagi odamlar va joylar haqida romanlar ko‘p uchraydi¹³. **O‘rta asrlar tarixiy nasri.** Adabiyot tarixining muhim davri hisoblangan o‘rta asrlar sharq va g‘arb madaniy hayotida turlicha rivojlanishni boshdan kechirdi. Jahon madaniy aloqalari nisbatan kuchaygan hamda millatlar o‘rtasida urush voqealariga boy bo‘lgan bu davr g‘arb adabiyotida diniy motivlarning ahamiyati katta bo‘ldi. Shuningdek, o‘rta asrlar g‘arb adabiyotida keng tarqalgan ritsarlik romanlari qahramonlik dostonlarining mantiqiy davomi sifatida shakllandi. O‘rta asrlar tarixiy nasrida profetologik tushunchalar yetakchilik qilib, asosan, diniy nuqtayi nazardan taraqqiy etdi. **XX asr tarixiy nasri.** Davr ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan chambarchas bog‘langan va ayni paytda jahon san‘ati an‘analarini davom ettiruvchi tarixiy nasr janri yangi davrda boy va murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. O‘tmishga bo‘lgan qiziqishning ortishi jamoatchilik ongida tarixiy xotira muammosining dolzarblik kasb etishi bilan bog‘liq edi. Bu davr tarixiy nasrida tarixiy mavzu va syujetlarni anglashning o‘ziga xos xususiyati yozuvchilarning barcha zamonaviy adabiyotga xos bo‘lgan abadiy axloqiy masalalarga qiziqishida namoyon bo‘ldi. O‘zbek adabiyotida tarixiy roman janri rivojlandi, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” va Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi yozuvchilar tarixiy nasrni boyitdi. O‘zbek adabiyotshunosligida “tarixiy nasr” atamasi kam sonli olimlarning ishlarida qayd etilgan bo‘lib, bu termin, asosan, rus tilida yozilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi (E.Samandarov, Z.Nurmuhamedova, A.Arxeangelskaya, A.Zayniddinova). O‘zbek tilidagi tadqiqotlarda esa uning o‘rnida ko‘pincha “tarixiy janr”, “adabiy-tarixiy asar”¹⁴, “badiiy-tarixiy nasr”¹⁵ terminlari qo‘llaniladi. “Tarixiy janr” atamasi ko‘pincha tarixiy mavzudagi asarlarga nisbatan qo‘llanadi, – deb yozadi A.Hayitmetov. – Bu ilmiy jihatdan noto‘g‘ri... O‘zbek adabiyotidagi mavjud janrlarning har biri turli qiziqarli mavzularga bag‘ishlanishi mumkin va hech bir janr faqat tarixiy mavzularga “ixtisoslashgan” emas. Binobarin, “tarixiy janr” atamasini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi¹⁶. Zamonaviy adabiyotda faqat tarixiy mavzuga bag‘ishlangan alohida janr mavjud bo‘la olmaydi, ijodkor tarixiy asar yozar ekan, uni bugunning muammolaridan kelib chiqib sayqallaydi. Ya’ni tarixiylik bir mavzu sifatida,

¹² Andrew H. Plaks. Four Masterworks of the Ming Novel. Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 1987.

¹³ Margaret Anne Doody. The True Story of the Novel. New Brunswick, NJ: Rutgers University Press, 1996, - P. 27

¹⁴ Ҳазратқулова Э.Б. Адабий-тарихий асарларда бадий ижод масалалари (“Бобурнома” ва “Тарихи Рашидий” асосида) фил. фан. док. (PhD) диссер. автореферати. Тошкент, 2022. –Б. 34.

¹⁵ Шодмонов Н. Н. “Шоҳиду-л-икбол”нинг ўзбек бадий-тарихий насри тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. филология фан. доктори дис. 2010. –Б. 38.

¹⁶ Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy usuli tarixidan. - Toshkent: Fan, 1970. –B. 85.

albatta, biror bir qolip – ya’ni janrni talab etadi. Lirika, drama, nasrning turli janrlari tarixiy mavzuni ifodalashi nuqtayi nazaridan tarixiy lirika, tarixiy drama, tarixiy nasrni tashkil etadi. Jahon adabiyotshunosligi tajribalariga asoslanib, adabiyotshunoslik ilmini dunyo atamalariga moslash, badiiy adabiyotimizda yaratilayotgan tarixiy mavzuda nasriy asarni qo‘llab-quvvatlash, ularni bir nom bilan “tarixiy nasr” deb atashni taklif qilamiz.

“*Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda mavzu va g‘oya muammosi*” nomli navbatdagi fasl tarixiy nasrda mavzu va g‘oyaning aks etishi muammolariga bag‘ishlanadi. O‘tgan asrning 20-yillaridan asr so‘ngiga qadar badiiy asar mavzusi, tematika rus adabiyotshunosligida keng tadqiq etilmadi. Bu davrda badiiy asar mavzularini o‘rganish ko‘pincha ularning ijtimoiy ahamiyatini tekshirish bilan chegaralanadi¹⁷. Bu hodisa, o‘z navbatida, rus adabiyotshunosligi ta’siri ostida rivojlangan o‘sha davr o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham tegishlidir. Milliy fanimizda badiiy asar mavzusi, tematika, mavzular tasnifi, ular o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida fikr yuritgan olimlarimiz soni sanoqli. Shu sabab tadqiqotimizda badiiy asar mavzusi va uning tasnifiga doir fikrlarga keng o‘rin berildi. Muammo – urug‘ bo‘lsa, undan unib chiquvchi nihol – g‘oyadir. Muallif ongi va qalbida dastlab urug‘ paydo bo‘ladi va u urug‘ni mashaqqat ila biror go‘sha – mavzu qatiga joylaydi. Muallifning o‘z urug‘i uchun munosib va qulay yerni, ya’ni mavzuni tanlay olishi uning ijodiy mahoratidan darak beradi. Odatda, yirik hajmli nasriy asarlar yagona muammo yechimi ustiga qurilmay, bir-biriga bog‘liq va bir-birini taqozo etuvchi muammolardan tarkiblanib, o‘ziga xos butunlikni tashkil qiladi. Ijodkor o‘zini o‘ylantirgan, tashvishga solgan muammo(lar)ni badiiy idrok etish uchun qulay va keng imkon beruvchi hayot materialini tanlaydi va bu asar mavzusidir. Ya’ni ijodkor o‘zi undirmoqchi bo‘lgan urug‘larning unib chiqishi, gullab meva tugishi uchun qulay bo‘lgan makon – mavzuni atrof-javonibdan tanlab oladi va o‘z muammosini ushbu zaminga – mavzuga qadaydi. Muallif doim ham mavzuni hayotdan aynan, o‘zgartirishlarsiz ko‘chirib olavermaydi. Badiiy asarda hayotning aynan aks etishi ko‘proq realistik asarlarda namoyon bo‘ladi. Ya’ni realistik asar mualliflari o‘z g‘oyalarini undirish uchun mavzu – tuproqni aynan tanlab oladi. Shuningdek, hayot materialini ishlov berib o‘z maqsadi yo‘lida o‘zgartirishi, fantastik ruhdagi asarlar uchun mirishkorlik maydonini xayoliy tarzda yaratishi ham mumkin. Bunday xayoliy makon yoki mavzu hayotiy holat mohiyatini ochish uchun yaratilgan badiiy model hisoblanadi. Ustoz Dilmurod Quronov Belinskiyning “romanning ikki turi mavjud: tarixiy va zamonaviy roman”, – degan fikriga tayanib, janrning boshqa turlarini “yaratish”ga hojat yo‘q ekanini ta’kidlaydi¹⁸. Ammo olim qayd etgan ushbu fikrlardan yigirma yil o‘tib, romanchilik anchayin rivojlandi, qolaversa, uning adabiyotshunoslikdagi tadqiqi janrning mazmunan boyib, yanada taraqqiy etishiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda tarixiy voqelikka ham, roman yozilgan davr muhitiga ham mos kelmaydigan yuksak xayoliy borliqni badiiy ifoda etuvchi fantastik romanlar mashhur bo‘lib bormoqda. Tarixiy romanchilikda esa davrlarni

¹⁷ Хализев В.Е. Теория литературы: Учебник/– 4-е изд., испр. и доп.– Москва: Высшая школа, 2004. –С.50.

¹⁸ Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. –Toshkent, 2004. –B. 215

qorishtirib yuboruvchi tarixiy fantastika urf bo'lmog'da. Ushbu muammo badiiy asarning unda aks ettirilayotgan davrga ko'ra tasnifini yanada aniqlashtirishni talab etadi. Tadqiqotimizda badiiy asar mavzusini asar yozilgan vaqtga ko'ra: 1) *Tarixiy mavzular*; 2) *Zamonaviy mavzular*; 3) *Bashorat ruhidagi yoki xayoliy-fantastik mavzular*; qamrab olingan shaxslar ko'lamiga ko'ra: 1) *Umuminsoniy mavzular*;

2) *Ijtimoiy mavzular*; 3) *Shaxsiy mavzular*; hayotning qay bir jihatini tasvirlashiga ko'ra: 1) *ideologik mavzular*; 2) *ruhiy-hissiy mavzular*; 3) *maishiy mavzular*; 4) *intellektual mavzular* tarzida tasniflandi. Ushbu tasnif, albatta, nisbiy bo'lib muallif o'z maqsadi yo'lida asar syujetini istagan payt bir davrdan boshqa bir davrga olib o'tish imtiyoziga ega ekanini nazarda tutsak, badiiy asar yuqorida ko'rsatilgan mavzularning biriga yoki bir nechtasiga bir vaqtning o'zida tegishli bo'la oladi. Yirik hajmli badiiy asarlar ko'pincha, undagi mavzular qatlami ko'p ekani bilan xarakterlanadi. Bunda asarning bosh mavzusi yetakchi vazifani bajarib, boshqa mavzular uning ifodasi uchun xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmi g'arb adabiy tanqidida "Yangi tanqid"¹⁹ ilmiy maktabining ta'siri o'laroq, "badiiy g'oya" atamasiga munosabat o'zgardi. "Yangi tanqid" ("Новая критика") maktabining yetakchi namoyandalari T.Eliot, K.Bruks, R.Uorren qarashlarida badiiy asar g'oyasining har qanday tahliliga keskin qarshilik kuzatiladi. Shunga qaramay, o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar "mavzu va g'oya" atamaları birgalikda nazariy tushuncha sifatida o'rganiladi, badiiy asarlar tadqiqida ularning g'oyaviy xususiyatlari tahlilga tortiladi. Badiiy asar g'oyasini o'rganish masalasida biz an'anaviy tamoyilni yoqlaymiz, faqatgina badiiy g'oyalar tahlilini mutloqlashtirmaslik, ularni badiiy matndan yulib olib talqin qilmaslik, g'oyalarni doim ijtimoiy yoki axloqiy tushunchalarga aylantirmaslik kerak. Badiiy g'oya, avvalo, muallif g'oyasi bo'lib, ijodkor o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrni mavzular yordamida, so'zlar vositasida qog'ozga tushiradi. Badiiy g'oyaning yana bir ma'nosi – asar matni g'oyasidir. Matn g'oyasi adabiy tanqidning eng ko'p o'rganilishi lozim bo'lgan jhati bo'lib, u doim ham muallif fikri bilan mos kelavermaydi. Muallif g'oyasi subyektiv, ya'ni faqat muallif fikri bilan bog'liq bo'lsa, matn g'oyasi o'quvchi tafakkuri bilan bog'liq. Tarixiy nasrda mavzu o'tmishga oid bo'lishiga qaramasdan g'oya asar yozilgan davrga tegishli bo'ladi. Natijada, tarixiy nasrda muallif g'oyasi asarning yetakchi mazmunini tashkil etadi.

"*Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi asarlari tasnifi*" deb nomlangan faslda Isajon Sultonning adabiy-tarixiy asarlarida tasvirlangan yetakchi mavzular tahlilga tortildi. Badiiy adabiyotda mavzu – ijodkorning asarlarini birlashtiruvchi, asosiy mazmunni tashkil etuvchi g'oya va tushunchalar yig'indisidir. Muallif ijodida yetakchi mavzularni tasniflash orqali uning shaxsiy estetik qarashlari hamda hayot

¹⁹ Inglizcha "New criticism" - XX asr anglo-amerika adabiy tanqidida keng yoyilgan nufuzli ilmiy maktab bo'lib, 1-jahon urushi davrida yuzaga kelgan. Neotanqid nazariyasi XIX asrning 2-yarmi adabiy tanqidning pozitivizm, impressional tanqid, madaniy-tarixiy maktablari qarashlariga qarshi kurash tarzida shakllandi. Bu qarash tarafdorlari san'atning tabiiy fanlar yordamida tahlil qilinishi, badiiy ijodning asosiy omillari insonning yashash sharoiti, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayot ekani to'g'risidagi fikrlarga qarshi chiqdi. Ular gumanitar fanlarning o'z maqsadlari, o'ziga xos bilimlar tizimi hamda tekshirish usullari mavjud ekanini yoqlab chiqishdi. Manba: СОВРЕМЕННОЕ ЗАРУБЕЖНОЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ (страны Западной Европы и США): концепции, школы, термины. Энциклопедический справочник. – Москва: Интрада – ИНИОН. 1999. –С.

hodisalarini qabul qilish usullari to'g'risida kengroq tasavvur hosil qilish mumkin. Isajon Sulton adabiy-tarixiy asarlarida bosh mavzu **turkiy xalqlar** mavzusi bo'lib, aksar asarlarida turkiylar hayotining turli davr va qirralari ochib beriladi. Muallif bosh mavzuni yoritishda xalqlarning paydo bo'lish tarixi, diniy qarashlar, qabilalar turmush tarzi, jang-u jadallar, muhabbat va nafrat, ota va farzand munosabatlari kabi yordamchi mavzulardan foydalanadi. Isajon Sulton asarlarida quyidagi mavzular qatlami kuzatildi: **Ijtimoiy-tarixiy mavzular** – tarixiy jarayonlar, jamiyat a'zolarining ijtimoiy munosabatlari, kishilarning ijtimoiy va madaniy hayoti, mehnati, orzu-umidlari, kurashlari, jamiyatdagi rollari tasviridir. “Xun” nomli hikoyada muallif eramizning IV asrida hozirgi Tyanshan tog'lari etagida yashagan ko'kturklarning turmush tarzi, yashash sharoiti, maslagi tabiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Asar qahramonlari Erxon chol va xotini Oyto'ldining “ko'rimsizgina go'sha”dagi “faqirona hayot”i o'sha davr ijtimoiy qatlamlarining oddiy, kambag'allik va yetishmovchilikdan iborat hayotini tasvirlaydi. **Siyosiy-tarixiy mavzular** – o'tmishdagi boshqaruvga oid mavzulardan tarkib topadi. Muallifning “Ismsiz qahramon haqida hikoya”, “Tabg'achlar” nomli tarixiy hikoyalari hamda “Bilga xoqon” romanida davlatchilik asoslari bosh mavzu sifatida tanlab olingan bo'lib, davlatchilik paydo bo'lishining asosiy shartlari, tarixiy shaxslarning davlat paydo bo'lishidagi o'rni masalasi batafsil yoritiladi. **Hissiy-tarixiy mavzularda** olis o'tmishga oid shaxslar qalb iztiroblari o'z aksini topadi. Muallif tarix fonida mehr-muhabbat, nafrat, qayg'u, shodlik, ota va farzand munosabatlari kabi mavzularni o'tmish kishilari qalbidagi kechinmalar tarzida yoritadi. “Xun” hikoyasi, ayniqsa, kuchli qarama-qarshi tuyg'ular kurashining o'tli alangasiga juda boy. “*U boshini quyi eggancha yig'lashdan to'xtamas, shunday esa-da dilining bir chetida o'g'lonning tirik qolganidan mamnun ham edi. Axir, xun olindi, dushman qoni to'kildi, bas...*”²⁰. **Umuminsoniy-tarixiy mavzu** umumbashariy mavzularning tarixiy voqealar asosidagi tasviridan hosil bo'ladi. Isajon Sulton ijodida umuminsoniy mavzular tarixiy shaxslar, xalqlar va millatlar doirasida shakllantiriladi. Xalqlarning paydo bo'lishi (“Tabg'achlar”), adolat (“Bilga xoqon”) kabi umuminsoniy masalalar muallif asarlari tematikasidan joy olgan. Tabg'ach xalqining millati va tili haqida olimlar turlicha fikr bildirishgan. V.S.Taskin tabg'ach xalqini mo'g'ul tilida so'zlashuvchi qabila²¹, turkolog S.G.Klyashtorniy esa ularni turkiy tilda so'zlashuvchi qabila deb hisoblaydi²². O'rxun-Enasoy yodgorliklarida tabg'achlarning xitoy ekani ko'rsatiladi. Mahmud Qoshg'ariy ham “Devoni lug'at at-turk” asarida tabg'achlarni xitoylik sifatida tasvirlaydi. Ammo olim xitoyliklarni uch guruhga ajratadi: “Shin [ya'ni, Xitoy] uch qavatdir, yuqori xitoy sharqda tabg'ach deb nomlanadi, o'rta qavati xitoy, quyi qavati esa Qashg'ar atrofidagi Barxondir. Hozirda tabg'ach xalqi – mashin, xitoy esa shin nomi bilan mashhur”²³. Ulug'lash maqsadida asariga samarali olib kiradi.

²⁰ Isajon Sulton “Xun” hikoya, <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1457-xun-hikoya-isajon-sulton.html>.

²¹ Таскин В. С. Материалы по истории древних кочевых народов группы дунху / Н. Ц. Мункуев. – Москва: Наука, 1984. –С. 487 с.

²² Кляшторный С. Г. История Центральной Азии и памятники рунического письма / С. Г. Кляшторный; Филологический факультет СПбГУ. – Санкт-Петербург, 2003. –С. 154.

²³ Biran, Michal (2005), The Empire of the Qara Khitai in Eurasian History: Between China and the Islamic World,

Tarixiy-e'tiqodiy mavzu dunyo paydo bo'lishi, odamning yaralishi, hayotning mazmuni haqidagi savollarga e'tiqodiy nuqtayi nazardan o'tmish xalqlarning dunyoqarashlari asosida javob beradi. Asosan, Osiyo xalqlari tarixini qalamga olgan Isajon Sulton ijodida deyarli barcha dunyo dinlari to'g'risida mavzularga duch kelamiz. Markaziy Osiyo o'tmishda turli qabilalar va xalqlarning makon tutib yashashi uchun qulay joy hisoblangan. Muallifning "Bilga xoqon" romanida turkiy xalqlar e'tiqodiga oid anemizm, totemizm, yakka xudolik dinlari, islomiy e'toqodga oid fikrlar qayd etiladi.

Tadqiqotning **"Isajon Sultonning kichik epik asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy ifoda"** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida adibning tarixiy hikoya va qissalari xronotop asosida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima masalasida tahlil etilgan. *"Isajon Sulton tarixiy hikoyalarida makon va zamonning aks etishi"* nomli faslida muallif asarlarida xronotop ma'lumotlari tahlil qilingan. Muallif asarlarida aks ettirgan makon va zamon masalasi ijodiy niyatning yuzaga chiqishiga zamin yaratishi nuqtayi nazaridan alohida tadqiqqa ehtiyoj sezadi. Isajon Sultonning kichik hajmli tarixiy asarlari yuz beruvchi geografik xarita Tiyonshon tog'lari etaklarini makon tutgan markaziy va sharqiy Osiyo mamlakatlaridan boshlanib, Arab o'lkalarini ham qamrab oladi. Muallif o'zbek adabiyoti uchun noyob hodisa hisoblangan turkiy xalqlarning antik davri, etnik jihatdan qadimgi turkiy qabilalar ajdodi bo'lmish xunlar, xitoy xalqining qadimgi urug'lari tabg'ach, xanzu qabilalari, arabiy, chin va qardosh xalqlarning IV asrdan to XI asr Sharq uyg'onish davriga qadar boshdan kechirgan voqea-hodisalarga ko'p murojaat qiladi. Muallifning kichik hajmli tarixiy mavzudagi asarlari davriy ketma-ketlikda quyidagicha tasvirlanadi:

2.2-jadval

Isajon Sultonning kichik hajmli tarixiy asarlari davriy tasnifi

Asar nomi						
"Tabg'achlar"	"Xun"	"Ismsiz qahramon haqida hikoya"	"Yog'och kovush"	"Tilsim lashkari yoxud Muqanna"	"Robiya Balxiy"	"Qoraqush yulduzning siri"
Asar voqealarining hududiy va davriy tartibi (xronotop)						
III-IV asr, Osiyo	IV asr, Osiyo	IV asr, Osiyo	VI-VII asr, Xitoy	VIII asr, Markaziy Osiyo	X asr, Arab o'lkasi	XI asr, Osiyo

Muallif epik asarlari ko'lamini aniqlashda Isajon Sulton tarixiy nasrini davrlashtirish masalasi yuzaga chiqdi. O'zbek adabiyotida tarixiy romanlarni davrlashtirgan olim I.Samandarov ularni besh guruhga ajratadi²⁴. D.Quronov esa o'zbek adabiyotini davrlashtirishda ijtimoiy-tarixiy omillarga hal qiluvchi ahamiyat beradi va o'zbek adabiyotini turkiy sulolalar davri adabiyoti; mo'g'ul

Cambridge University Press.

²⁴ Самандаров И. Э. Историзм узбекских исторических романов/ Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Ташкент, 1992. –С. 22

istilosi davri adabiyoti; temuriylar davri adabiyoti; xonliklar davri adabiyoti tarzida guruhlab ko'rsatadi²⁵. XXI asrning ilk choragida milliy adabiyotimizda paydo bo'lgan yangi asarlar tarixiy nasrni qayta davrlashtirish masalasini qo'yimoqda. Mustaqillikdan keyin tarixning chuqur o'rganilishi zamonaviy adabiyotda ham voqelikning chuqurroq aks etishi ehtiyojini paydo qildi. Isajon Sultonning qator asarlari borki, shu ehtiyojga javoban dunyo yuzini ko'rdi. Bizningcha, o'zbek tarixiy nasrini davrlashtirishda xun qabilalarini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Turkiy xalqlar tarixiy nasri taraqqiyotini quyidagicha belgilashni taklif qilamiz: 1) *Antik davr yoki Xun imperiyasi davri tarixiy nasri*; 2) *Turk xoqonligi davri tarixiy nasri*; 3) *Arablar istilosidan keyingi turkiy davlatlar (Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati) hukmronligiga oid tarixiy nasr*; 4) *Mo'g'ullar bosqini davri tarixiy nasri*; 5) *Temuriylar davri tarixiy nasri*; 6) *Xonliklar davri tarixiy nasri*; 7) *Sobiq sovet ittifoqi tarixiy nasri*. Isajon Sulton ijodida ushbu davrlashtirishning deyarli barcha qismlariga oid mavzularda asarlar uchraydi. Miloddan avvalgi III asrdan milodiy VI asrgacha qudratini yo'qotmagan, turli xalqlar va elatlar bilan birlashib, yangi nom bilan qayta oyoqqa turgan Xun imperiyasi turkiy xalqlar tarixining antik davri sifatida ko'riladi. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi ajdodlari hisoblangan Xun qabilalari mavzusi o'zbek adabiyotida juda kam yoritilgan. Yozuvchi Isajon Sultonning "Tabg'achlar", "Xun" va "Ismsiz qahramon haqida hikoya" asarlarida imperiyaning kuchsizlangan davri – VI asrda qo'shni qabilalar bilan janglar, mag'lubiyat va g'alabalar haqida so'z boradi. Tarixiy nasrning ikkinchi davri VI-VIII asrlarni o'z ichiga olib, turkiy xalqlarning mustaqil davlatchiligi (Bumin xoqon, Qutlug' Bilga xoqon) tashkil topgan davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr to'g'risida bizgacha yetib kelgan yozma manbalar orqali Bumin xoqon, Bilga xoqon, uning safdoshlar Kultegin va To'nyuquq haqida yetib kelgan ma'lumotlar badiiy asarlar uchun asos bo'lmoqda. Bugungacha Otaulining "Bilga xoqon" dostoni va Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani ushbu davr to'g'risidagi qimmatli asarlar bo'lib turibdi. Arablar istilosidan keyingi turkiy davlatlar (Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar davlati) IX-XIII asrlarni o'z ichiga oladi. Muallif ijodida Mahmud Qoshg'ariy hayotidan hikoya qiluvchi "Qoraqush yulduzning siri" hikoyasi hamda sharq uyg'onish davri voqealariga oid "Abu Rayhon Beruniy" romani ushbu davr voqealarini qamrab oladi. Temuriylar davriga oid "Alisher Navoiy" hamda sobiq sovet ittifoqi davri voqealaridan hikoya qiluvchi "Ma'suma" romanlari muallif ijodi ko'lamining naqadar keng ekani, adibning turkiy xalqlar tarixiga oid barcha davrlarini badiiy aks ettirish maqsadini namoyon qiladi.

"Tabg'achlar", "Qoraqush yulduzning siri" hikoyalarida badiiy tafakkur va ifoda uyg'unligi" nomli faslda muallifning taixiy mavzuni badiiy aks ettirish usullari tahlil qilinadi. Tarixiy mavzuni ilmiy asoslardan chekinmagan holda badiiy talqin qilish yo'lidan borayotgan Isajon Sulton kechmish hodisalarni ikki usul bilan asarlariga olib kiradi. Birinchi usul gibril mavzulardan tashkil topib, ijodkor asarning ayrim qismlarini tarixiy mavzu asosida yoritadi ("Boqiy darbadar",

²⁵ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004. –B 222.

